



ABDULLA QAHHORNING HIKOYALARDA SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Karomatov Akbar Abrammat o'g'li

CHDPI Gumanitar fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi


Ilmiy rahbar f.f.n, dotsent

T.SABITOVA

Anotatsiya: Abdulla Qahhorning so'z qo'llash mahorati . So'z qo'llash mahoratining uslubiyati va maqsad-vazifalari. Nosirning so'zni qo'llashda nozik san'at yaratgani haqida

Tayanch so'zlar: Puxta fikr, o'tkir kinoya, hajman ixchamlik, zamonga hamnafaslik, mukammal tasvir, chuqur muhokama, "Tomi – ezilgan suv".


XX asr o'zbek nasrining zabardast vakili Abdulla Qahhordir. Zakiy nosirning asarlaridan o'zga nosirlarning ijodidan topib bo'lmas, hajman ixchamlik, ayni zamonga hamnafaslik, puxta fikr, o'tkir kinoyaga yo'g'rilgan yumar va satira quymaligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga nosir o'z davr o'zgarishlariga chuqur muhokamalar bilan hozirjavobligi ham. Zakiy nosir ijodida yumar ham anchagina salmoqli o'rinn egallaydi. Bular sirasiga "Nutq", "San'atkor", "Dumli odamlar", "Adabiyot muallimi" kabilalar mansubdir. A.Qahhor har bir ijodida so'zning cheksiz qudratini ko'rsatadi. Masalan: "Pora" ertagida shunday jumla keltiriladi "Bo'lindi, dard borgan sari kuchayib tomog'idan hatto suv ham o'tmay, o'g'ziga paxta bilan tomi – ezilgan suv burnidan keladigan bo'lib qoldi".(1, 205-bet). Yuqoridagi jumlada keltirilgan "Tomi – ezilgan suv" tafsifining o'zi butun bir tasvirdir. Nosir "Tomizilgan" suv deyishni jumлага jo'yali deb topmaydi va "Tomi – ezilgan suv" deya kitobxon ongida mukammal tasvir yaratadi. Asarlardagi bunday so'z qo'llashdagi ustaliklar anchagini tashkil etadi. Ular turli uslub va maqsadlarni yuzaga chiqaradi va vazifalar bajaradi. Ularning bir qismi A.Qahhor ijodiga xos bo'lgan yumar ostiga olingan tanqidiy hikoyalarda bir qancha ko'proq bo'y ko'rsatadi. Bular sirasiga yaqqol so'z mezoni o'rinn tutib yaratilgan "Nutq" va "San'atkor" hikoyalaridir. "San'atkor" hikoyasida san'atkorning til madaniyati va shu bilan birga saviyasi ham qalamga olinib, san'atkorga traktorchining e'tirozi bilan boshlanadi. "Hech bo'lmasa aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlarini to'g'ri ayt" emish! Nimasini bilmayman, nimesi to'g'ri emas? Meni shu vaqtgacha muxbirlar, yozuvchilar ham tanqid qilgan emas; formalizm, naturalizmlardan o'tdim – hech kim otvod bergani yo'q. Otvod berish qayoqda hech kim meni o'g'ziga ham olmadi. Endi bir traktorchi tanqid qilar emish!...(2, 193-bet). Traktorchi san'atkorni qo'shiq jumlalaridan birini noto'g'ri aytgani sabab koyiydi. "Labingdan bo'sa olsam, e shakarlab"(3,194-bet) jumlasini san'atkor "Labingdan bo'lsa olsam, e shakarlab"(4,194-bet) deya qo'shiq kuylaydi. Bu jumlanı o'qir ekansiz mutlaqo qahramonning so'z boyligini va so'zlash saviyasini yaqqol sezasiz. Bu hikoya yumar ostidagi ma'nosi bilan ham ahamiyatlidir. Yuqorida san'atkor tilidan aytildi "Otvod





berish qayqdada hech kim meni o'g'ziga ham olmadi. Endi bir traktorchi tanqid qilar emish!.." (3,193-bet) jumlada qo'llanilgan iboraga e'tibor bering san'atkori uni o'zgalar "Tilga ham olmadi" shaklida emas "Og'ziga ham olmadi" shaklida fikr yuritadi. Shu holatning o'zi Abdulla Qahhorning so'z ustasi, so'z tasvirida haqiqiy daho ekanligi ayon bo'ladi chunki, tilga olmaslik – biror shaxs haqida hech so'z demaslik, u shaxsni eslamaslik ma'nolarini bersa, og'izga olmaslik esa biror narsadan tiyilish, shu narsani umuman yemaslik ichmaslik ma'nolarida keng qo'llanadi. Iboraarning nozik jihatlarini teran anglovchi adib mana shu iboraning qo'llanishi bilan san'atkoring umum til savodini yana bir bora ayon qiladi.

Adibning "Nurli cho'qqilar" hikoyasida esa tilga olinuvchi yosh opa-singillar hayoti ya'ni Fotima va Zuhraning katta hayotga qadam qo'yishlari haqidagi hikoya. Unda Zuhraning begona yigit bilan qochib ketadi va sovet davlatining "hurfikr" farzandi bo'lib tarbiyalangan Zuhra uyiga shunday maktub yo'llaydi: "Tur mush o'rtog'im bilan ko'nglimizning amrini bajarib, baxtiyor oilalar safidan mustahkam o'rinn egalladik va baxtli tur mush quchog'ida oqib, keljakning nurli cho'qqilari tomon bormoqdamiz. Sizlar feodalizmning uqubatli quchog'ida yashagansizlar, yuksak ideallarga asoslangan muhabbat nima ekanligini bilmaysizlar, shuning uchun mendan xafa bo'l manglar, xursand bo'ladigan kunlaring yaqinlashib kelmoqda" (5,219-bet). Maktub oxirida keltirilgan jumлага e'tibor bersangiz "Xursand bo'ladigan kunlaring yaqinlashib kelmoqda" deya keltirilishi ota-onaning o'ylarini hayolning ming bir ko'chasiga solib chiqishi bilan birga kitobxonni ham o'yga soladi. Ularni xursand bo'ladigan kunlari qanday kun? Uni Fotimadan ham ustun qo'yib o'qishiga yo'l olib berishganining mevasi, o'qimishli bir qizning onasining quchog'iga qatar kunimi? Ammo, Zuhra bunday qilmadi. U o'z uyi ostonasidan qadam oshirdi va xato qildi. Abdulla Qahhor har br asarida qahramonlar tasviri va qahramonning so'zini qog'ozga tushirar ekan, hikoyaning maqsadi, yumar darajasi, qahramonning hikoyadagi saviyasini ham nazardan qochirmaydi. Ularning ruhiga mos bo'lgan so'zlarni va iboralarni topib qo'llaydi. Bu esa hikoyaning butun bir voqeaga aylantiradi. Adib hikoyalarida so'zning qudratini his qilib uning sehrini tuyib foydalanar ekan o'zbek tilining ham turfa imkoniyatlari qayta insonlar orasida qayta bosh ko'taradi. So'zlarning hech biri shunchaki yumar, pafos uchun qo'llanmay ularning har biri ma'no tashiydi. Bunga bir misol sifatida "Nutq" hikoyasining so'z tizimini oladigan bo'lsak unda adib uslub, so'zlarning jo'yali qo'llanmasligi oqibatlari haqida yorqin bir voqe yaratgan. Undagi har bir jumla kishida kulgu va hikoyani o'qishga bo'lgan zavq-shavqni uyg'otadi. Abdulla Qahhor hikoyalarining biron yerida so'zning vazni hikoya syujetidan oshib qolib qolipidan oqmaydi yoki uni tushunishlikda qiyinchilik tug'dirmaydi. Ularning bari yaxlit bir butunlikni kasb etadiki, bir so'zni olib tashlab hikoyani tugal mano kasb etadi deyolmaysiz. Bunga bir misol hajman kichik bo'lgan "Bemor" hikoyasining boshlanmasiga e'tibor bering. "Sotiboldining xotini og'rib qoldi" (6,143-bet). Shu jumla bilan hikoya boshlanar ekan keyingi jumlalar uning ustiga mohirlilik bilan qo'yilib ketiladi. Agarda yuqoridagi jumla o'rniga boshqa bir jumla





qo'yemoqchi bo'lsangiz keyingi jumlalarning talabiga javob bermaydi. Bu adibning albatta mohir so'z san'atkori ekanligiga yana bir dalildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.“O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 .
- 2.“O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 . 3.
- “O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 . 4.
- “O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 . 5.
- “O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 . 6.
- “O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 .

